

Date: 25th October-2024

ADABIYOT DARSALARIDA YOZUVCHI TARJIMAYI HOLINI O'RGANISH

Odilova Mahmudaxon Kamolxonovna

Namangan viloyati Kosonsoy tuman XTBga
qarashli 45-umumi o'rta ta'lif maktabi

Annotatsiya: O'quvchilarga yozuvchi tarjimai holini o'rgatish bilan ular qalbida badiiy adabiyotga, so'z san'atiga muhabbat tushunchalarini jo qilish. Yozuvchi, shoirlar tarjimayi holini o'rganishda so'z san'atining o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: Yozuvchi, asar, shoir, so'z, adabiyot, muallif, olim, tarjimayi hol, ma'lumot.

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar asarni teranroq anglashga, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini oson o'zlashtirishga yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlardan olinadi? Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimayi hollardan, zamondosh tengdoshlari, shoirlar, yozuvchilar, ustozlar, muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalar orqali bilish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan ma'lumotlardir. Jumladan, shoh va shoir Z.M. Bobur tarjimayi holini o'rganishda mashhur shaxslar, yirik davlat va jamoat arboblari, olimlarning fikrlaridan foydalanish mumkin.

"Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining yirik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan, u san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko'rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo'lib, ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan.

JAVOHARLA'L NERU.

"Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sulton, buyuk imperator darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi.

Bu o'lkani 332yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi.

RUMER GODEN.

"Bobur mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga "Boburnoma"ni tugallab, taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko'rdim,

Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.

Har kim bu "Vaqoye" ni o'qir, bilgaykim,

Ne ranj-u, ne mashaqqat-u ne g'ammlar ko'rdim.

PIRIMQUL QODIROV.

XXasr adabiyotining yorqin namoyandasasi "Tong yulduzi"-Cho'lpon hayoti va ijodi, "Kecha va kunduz" asarini o'rganishda ham quyidagi adiblar, olimlarning fikrlari kata yordam beradi. "Kecha va kunduz" romaniga tugal badiiylik baxsh etgan eng muhim omil shundaki, Cho'lpon xalq hayotining badiiy tahlilini ham, ijtimoiy hayot haqidagi o'zinig

Date: 25th October-2024

mulohazalari va xulosalarini ham biron o'rinda yalang'och aytishga urinmaydi bularning bari romanda jonli odamlar, ularning taqdiri, xarakterlari mantiqi vositasida ochiladi".

OZOD SHAROFIDDINOV "O'zbekiston Qahramoni". "Milliy adabiyotimizda zamonaviy nasrchilik endigina shakllanayotgan pallada ijod qilgan Cho'lponning ijodiy izlanishlari nasrimizning poetik arenasini boyitishga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi.

Cho'lpon o'z ijodi bilan nasriy janrlarning turfa imkoniyatlarini namoyon qildi, turli poetik usul va vositalarni dadil tajriba qilib, ularning milliy adabiyotimizda o'zlashib qolishiga puxta zamin hozirladi".

DILMUROD QURONOV. Adabiyotshunos. "Cho'lponning ulug'vorligi shundaki, u XX asr o'zbek adabiyotini yangi pog'onaga ko'tarib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shibgina qolmasdan, xalqda "Vatan", "Millat", "Istiqlol" tushunchalarining teran ma'no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta'sir ko'rsatdi. O'zga so'zlar bilan aytganda, u xalqda hurriyat tuyg'usini uyg'otdi, uning ko'zidagi g'aflat pardasini olib tashladi, unda Vatanga muhabbat, kelajakka ishlarini tarbiyaladi. Uning fuqarolik jasorati xuddi shundadir".

NAIN KARIMOV, Akademik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ziyonet.uz
2. B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova "Adabiyot" 10-sinf uchun darslik
3. B. To'xliyev, B. Karimov, K. Usmonova "Adabiyot" 11-sinf uchun darslik